



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko'chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 3 - mart

VI-59-48-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagи “Bola huquqlarining kafolatlarini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6275-son Farmoniga asosan Bolalar masalalari bo‘yicha tuman komissiyasi raisining 2022-yil davomida komissiya faoliyatiga doir axboroti to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagи “Bola huquqlarining kafolatlarini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6275-son Farmoni asosida Bolalar masalalari bo‘yicha tuman komissiyasi va Bolalarni himoya qilish sho‘basi tashkil etilgan. Tumanda 0-18 yoshgacha bo‘lgan jami 46551 voyaga yetmagan bolalar mavjud bo‘lib, shundan 22390 nafari qiz bolalarni tashkil etib, ushbu bolalardan 36 nafari yetim bolalar va ota-onas qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar. Ushbu bolalarning 33 nafari vasiylikka va homiylikka 3 nafari oilaga tarbiyaga (Patronat)ga berilgan.

Bolalarni himoya qilish sho‘basi xodimlari tomonidan 0 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan 36 nafar yetim bolalar va ota-onas qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar 19 yoshdan 23 yoshgacha bo‘lgan 6 nafar yetim bolalar va ota-onas qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning ro‘yxati “Mehr daftari”ga kiritildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 25-oktabrdagi 656-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Yetim bolalar va ota-onas qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni uy-joylar bilan ta’minlash tartibi to‘g‘risida”gi Nizomda keltirilgan “Onlayn-navbat” axborot tizimiga farzandlikka, vasiylikka, homiylikka, patronatga olingan yetim bolalar va ota-onas qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar shahar va tuman hokimligining bolalarni himoya qilish sho‘basi tomonidan kiritildi.

Tuman hokimligining bolalarni himoya qilish sho‘basi tomonidan “Onlayn-navbat” axborot tizimiga kiritilgan uy-joyga muhtoj yetim bolalar va ota-onas qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar haqidagi barcha tegishli ma’lumotlar bazasini shakllantirilib, farzandlikka, vasiylikka, homiylikka, patronatga olingan yetim bolalar va ota-onas qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni “my.maktab.uz” tizimiga o‘z vaqtida kiritib bormoqda.

Bolalarni himoya qilish sho'basi xodimlari tomonidan yetim bolalar va ota-onan qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar "Mehr daftari"ga kiritildi. Uy-joyga muhtoj bo'lgan yetim bolalar va ota-onan qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni uy-joy bilan ta'minlash bo'yicha 6 nafar 23 yoshgacha bo'lgan yetim bolalar va ota-onan qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar ro'yxati shakllantirilib viloyat hokimligiga taqdim etilib, onlayn navbatga qo'yildi.

Hozirgi kunda uy-joy bilan ta'minlangan yetim bolalar va ota-onan qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalardan 3 nafar ya'ni tumandagi "Madaniyat" mahallasida yashovchi Eshmanov G'ayrat Erkin o'g'li va "Xo'janqon" mahallasida yashovchi Razzaqov Mavlon Juma o'g'li hamda "Navro'z" mahallasida yashovchi Nomozov Behzodjon Bohodirovichlarning yashash sharoiti o'r ganilib tegishli yordamlar berildi.

Tumanda 5 nafar past ball olgan yetim bolalar va ota-onan qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni oliy o'quv yurtiga qabul qilish bo'yicha qayta ko'rib chiqilib, 2023-yil yanvar oyidan boshlab oliy o'quv yurtiga talabalikka imtiyoz asosida o'qishga qabul qilindi. Hozirgi kunda oliy ta'limga imtiyoz asosida o'qishga qabul qilingan 9 nafar yetim bolalar va ota-onan qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga yaratilgan shart-sharoitlar yuzasidan o'r ganishlar olib borildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagagi "Bola huquqlarining kafolatlarini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6275-son Farmonining tumandagi ijrosini ta'minlash bo'yicha tuman hokimligi yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy - ma'rifiy ishlar masalalari bo'yicha o'rinnbosari O.Umarovning xalq deputatlari tuman Kengashining Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo'yicha doimiy komissiyasiga bergan axborotini ko'rib chiqilganligi va deputatlarning fikr-mulohazalari hamda takliflarini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari Angor tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagagi "Bola huquqlarining kafolatlarini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6275-son Farmonining tumandagi ijrosi yuzasidan tuman hokimligi yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy - ma'rifiy ishlar masalalari bo'yicha o'rinnbosari O.Umarovning xalq deputatlari tuman Kengashining Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo'yicha doimiy komissiyasiga bergan axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xalq ta'limi bo'limi (N.Mamadiyarov), Yoshlar ishlari agentligi tuman bo'limi boshlig'i (D.Shanayev) hamda tuman Maktabgacha ta'lim bo'limi (G.Bobomurodova)larga:

- tizimda ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishdagi ishlarni va voyaga yetmaganlar o‘rtasida jinoyatchilik holatlarini tahlil qilish, umumta’lim mакtablarida haftaning har payshanba kuni o‘tkaziladigan profilaktik tadbirlar doirasida hamda mакtabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalar haq-huquqlarining himoya qilinishi bo‘yicha doimiy monitoring yuritish;

- sababsiz dars qoldirayotgan o‘quvchilarning ota-onalari yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar bilan nisbatan tushuntirish ishlarini muntazam ravishda olib borish;

- bolalarni kasbiy va sport to‘garaklariga jalb etish, ular o‘rtasida turli ko‘rik tanlovlар o‘tkazish orqali bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil qilish hamda iste’dodli yoshlar faoliyatini keng targ‘ib qilish, yoshlarda millatlar va dinlararo muomala madaniyati, umuminsoniy qadriyatlarga hurmatni shakllantirib borishga qaratilgan targ‘ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirish vazifalari yuklatilsin.

3. Bolalar masalalari bo‘yicha tuman komissiyasiga:

- o‘z ish faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagи “Bola huquqlarining kafolatlarini ta’minalash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-6275-sonli farmoni va sohaga oid boshqa qonunchilik hujjatlarida belgilangan ustuvor vazifalardan kelib chiqib tashkil etish;

- bolalar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklar profilaktikasiga oid ma’lumotni to‘plash, saqlash, qayta ishlash, tahlil qilish hamda tegishli organlar va muassasalar faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida ulardan foydalanish;

- bolalar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklar profilaktikasi sohasida davlat dasturlari va boshqa dasturlarning ijrosini ta’minalash;

- bolaning ota-onasi qaramog‘idan mahrum bo‘lishining oldini olish choralarini ko‘rish;

- bolalarning jismoniy, intellektual, ma’naviy va axloqiy kamol topishiga ko‘maklashish;

- bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, uning sog‘lom turmush tarzini ta’minalash;

- “Mehr daftari” tizimiga kiritilgan yetim bolalar va ota-onasi qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning muammolari, ularni qiynayotgan masalalarni joyida hal qilish hamda keyingi hayotida o‘z o‘rnini topishiga har tomonlama ko‘maklashsin.

4. Tuman hokimligining Bolalarni himoya qilish sho‘basi (B.Shomurodov)ga:

- bolalarni qo'llab-quvvatlash, ularning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish, ma'naviyatni yuksaltirish, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish bo'yicha mahalla kesimida tuman ichki ishlar bo'limi, tuman xalq ta'limi bo'limi, tuman mакtabgacha ta'lim bo'limi, tuman milliy gvardiya bo'limi, tuman sportni rivojlantirish bo'limi, tuman tibbiyat birlashmasi, tumandagi o'zini o'zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda har oyda bolalar bilan tegishlicha profilaktik tadbir va tushuntirish ishlarini olib borish;

- voyaga yetmaganlar bilan joylarda amalga oshirilgan profilaktik tadbirlarni tuman hokimligi axborot xizmati bilan hamkorlikda yoritib borsin.

5. Yuqorida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan **har chorak yakunida** xalq deputatlari tuman Kengashiga yozma axborot kiritib borilsin.

6. Tuman hokimligining Axborot xizmati va "Angor yog'dusi" gazetasi tahririysi (G.Jumayeva)ga olib borilayotgan ishlar holatini ommaviy axborot vositasi hamda ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritib borish tavsiya etilsin.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (Sh.Qo'ziyeva) va ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (M.Qodirova)lar zimmasiga yuklatilsin.

8. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Sessiya raisi



X.Xolmurodov